

VATANNI SEVISH - YANGI O'ZBEKISTONNING KELAJAGINI BUNYOD ETISHDIR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17096212>

Haqliev V.B.

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son Toshkent Akademik litsey o'qituvchisi, t.f.n.,
dotsent*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Vatan, vatanparvarlikning ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar

Vatan, muhabbat, xalq, salohiyat, yurt, fuqaro, o'zbekistonlik, O'zbekiston xalqi, ijtimoiy birlik, jipslik, Yangi O'zbekiston, kelajak, jamiyat, tinchlik, hamjihatlik, avlod, ijtimoiy muhit, mamlakat.

Vatanga bo'lган muhabbat xalqimizning o'zligi, salohiyati va imkoniyatlarini anglashga turtki beradi. Chunki Vatan barchamizni shu yurtning fuqarosi, o'zbekistonlik va O'zbekiston xalqi degan ijtimoiy birlklarga jipslashtiradi. Vatanni sevish Yangi O'zbekistonning kelajagini bunyod qilishga safarbar etishdan iboratdir. Zero, jamiyat hayotining barqaror bo'lishida tinchlik, hamjihatlik asosiy o'rinnegallaydi.

Vatanga sadoqat mazmuniga to'xtalishdan oldin «Vatan» tushunchasiga berilgan ta'rif va tasniflarga to'xtalib o'tish joiz. Atamalar lug'atida Vatan (arabcha – ona yurt) – kishilarning o'zi yashab turgan, avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan, millati shakllangan joy, ijtimoiy muhit, mamlakat⁷, deya ta'riflangan bo'lsa, O'zbek tilining izohli lug'atida Vatan (arabcha – o'sgan joy, yurt) – kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor yoxud kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt⁸, deb ta'rif berilgan.

Hazrat Alisher Navoiy «Vatan» tushunchasini ona yurt, o'rinn, tug'ilib o'sgan joy, maskan, manzil ma'nolarida ishlataladilar. O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik esa, Vatan, eng avvalo, ota-bobolarning pokiza xoklari ila sharaflangan joydir, deb tasnif beradi. Biz Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz. Vatan degani uy-joy, ostona, bola-chaqa, zamin, maydon, xalq, davlat, o'lkani anglatadi.

⁷ Qarang: Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T., 2007. – B.107.

⁸ Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. J.I / Tahrir hay'ati T.Mirzaev va boshq. – T., 2006. – B.444.

«Vatan» tushunchasi *keng* ma'noda ham, *tor* ma'noda ham qo'llaniladi. Muayyan bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir.

Kishi tug'ilib o'sgan uy, ko'cha, mahalla, qishloq yoki shahar nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir. O'zbek xalqida «falonchi vatanli bo'ldi», deganda, o'sha odam uy-joyli, boshpanali bo'ldi degan ma'no tushuniladi.

«Vatan» tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashagan joy o'sha qabilaning Vatani sanalgan. Jondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo'lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Tarixiy Vatanni eslash, qo'msash insonning ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Tarixiy Vatanni yodidan chiqargan odam yashab turgan joyining ham qadriga yetmaydi. Vatan hissi muqaddas tuyg'u bo'lib, xalqni sevmoq, hurmat qilmoq, qadriga yetmoq va e'tirof etmoq demakdir. Bu go'zal Vatan osmondan tappa-tayyor holda o'zicha yerga tushib qolmagan. U tinimsiz fidokorona mehnat ila bunyod etilgan. Vatan hissi shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi.

Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas zamin, uni kamolot sari yetaklovchi, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etuvchi tabarruk maskan. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, beba ho meros, eng aziz xotira. Vatan – ota-bobolarimizning xoki-poklari jo bo'lgan, vaqt(soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamin. Vatan ostonadan boshlanib, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat va nihoyat, mamlakat darajasiga ko'tariladi. Bu esa odamning ulg'aygan sari Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayib borishini anglatadi.

Vatanni asrab-avaylash, uning sarhadlarini gullatib-yashnatish o'z qo'limizda. Bunday imkoniyatni esa bizga mustaqillik berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentii Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, “**Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jordan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak.**”⁹.

O'z ota-onasiga mehrsiz odam begonalarni hurmat qilmaydi. Haqni sevmagan odam Vatanga xiyonat qilishdan uyalmaydi.

⁹ president.uz/uz/lists/view/1371

Atoqli shoirimiz O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi misralarida ham ana shu tuyg'ular o'zining ifodasini topgan:

*Maqsad bir bo'lmasa, jam bo'lmagaymiz,
Jam bo'lsak, boshimiz ham bo'lma gaymiz.
Vatan bir, g'oya bir do'stmiz, birodar,
Dunyoda hech kimdan kam bo'lma gaymiz.*

Vatan taraqqiyoti avvalo uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga chorlaydi va vatanparvarlik faoliyatida ko'zga ko'rindi. Vatanparvarlik - Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash demakdir.

Vatanparvarlik kishining o'zi tug'ilib o'sgan va kamol topgan joyi, zaminiga nisbatan muhabbati va munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlari hamda fidoyiligida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik shaxsning chinakam e'tiqodiga aylanmog'i uchun bilim, dunyo va ilm sirlaridan boxabarlik, kasbiga sodiqlik va albatta fidoyilik zarur. Vatan haqida balandparvoz gaplarni gapirib, u qiyin ahvolga tushib qolganda esa ikkilanib yoki loqaydlik, befarqlik qilib, irodasi, imon-e'tiqodi susayadigan yoxud sadoqati zaiflashadigan insonlar Vatanga noloyiq deb hisoblanadilar.

Ingliz shoiri Jorj Bayron aytganidek, «**Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.**»¹⁰ Ana shuni chuqur anglagan davlatimiz rahbari bor kuchi, g'ayrati, imkoniyatini Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasiga safarbar etmoqda. Buni har bir vatandoshimiz, jumlai jahon ko'rib, bilib turibdi.

Vatanning taraqqiyotiga xizmat qilmaydigan yot g'oyalar qanday libosga o'ralib olmasin, qanday niqob kiymasin hech qachon bizning milliyligimizga aylana olmaydi.

«Vatan» tushunchasi hozirgi yillarda alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Istibdod yillaridagi hukmron kommunistik tuzum davrida «O'zbekiston - Vatanim manim» yoki «o'zbek xalqi» deyish millatchilik sifatida baholanib, yuzlab vatandoshlarimizning qatag'on bo'lishiga olib kelgan edi. Hozirda u kunlar tarixga aylandi. Bugun Vatanimizni asrash, avaylash O'zbekiston xalqining vatanparvarlik burchidir.

Vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'u. Fransuz adibi Volter bu haqda shunday deydi: «Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim

¹⁰ <https://kun.uz/kr/55701881>

qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi boshqa xalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi»¹¹.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan ishlar mehnatkash xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik faoliyatidan dalolatdir. Bugungi kunda ana shu bunyodkorlik va yaratuvchanlik salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnika va texnologiyalar asosida yangilanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahonda Ford, Rokfeller, Dyupon, Krupp, Bilgeyts, Jores Alferov, Po'lat Habibullaev kabi bir qator uddaburon, g'ayratli kashfiyotchi, fidoiy-vatanparvar tadbirkorlar o'z nomlarini millatlari va Vatanlari tarixiga abadiy yozib qo'ydilar.

Hind zaminida ulkan davlat barpo etgan, ilmu fan, adabiyot va san'atda o'chmas iz qoldirgan shoh - Zahiriddin Muhammad Boburning Andijondan keladigan har bir xabarga mushtoq bo'lgani, Vatandan keltirilgan mevalarni ko'rganida yosh bola yanglig' o'zini tutolmay yig'lagani ham shundan. Inson yuragini larzaga soluvchi quyidagi o'tli misralar ham ana shu tuyg'ular natijasida bitilgani shubhasiz:

Ko'pdin berikim yoru diyorum yo'qtur,

Bir lahzavu bir nafas qarorim yo'qtur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Vatan haqida gap ketar ekan, «**Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!**» degan bosh g'oya bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli millat vakillari tilida jaranglab, milliy birligimiz timsoliga aylandi.

Xalqaro miqyosdagi turli sport musobaqalarida yurtdoshlarimizning g'alabasi sharafiga Vatanimiz bayrog'i ko'tarilgani, ularning ko'zlarida sevinch ko'z yoshlari paydo bo'lgani, davlatimiz bayrog'ini yuzlariga surtib, ko'ksini baland tutgani bu muborak tuproq ularga cheksiz g'urur-iftixon baxsh etishini ko'rsatadi. Bularning barchasi yurtdoshlarimizda, millatidan qat'i nazar, yagona «Vatan» tuyg'usi shakllanganligining dalilidir.

Ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga muhabbat va sadoqatni ifoda etish borasida ajoyib namunalar ko'rsatganlar. Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimizning taxalluslarini kindik qonlari to'kilgan yurt bilan bog'lab, uning nomini dunyoga ma'lumu mashhur qilganlari ham bir ibratdir. Vatanparvarlik Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish, ona yurt erishgan muvaffaqiyatlardan quvonish, uning istiqboli uchun qayg'urish kabi his-tuyg'ularda yorqin namoyon bo'ladi.

¹¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar / Q.Nazarov va boshq. – T., 2001. – B.154.

Vatanparvarlik Vatanga nisbatan sadoqat bilan xizmat qilish, uni dushmanlardan himoya qilish, tinchlikni asrash, uning mustaqilligi uchun kurash, milliy manfaatlarni himoya qilishda ko'rinadi. Yurtimiz dovrug'ini dunyoga tanitgan buyuk ajdodimiz, islom olamida keng tarqalgan kubraviya ta'limotining asoschisi Najmuddin Kubroning jasorati Vatanga fidoiylikning yorqin misoli bo'la oladi. Zamonasining buyuk allomasi, minglab izdoshlarga ega bo'lgan bu ulug' yurtdoshimiz Xorazmga mo'g'ullar kirib kelayotganidan xabar topib, birinchilardan Vatan himoyasiga otlandi. Najmuddin Kubroning xalq orasidagi obro'-e'tiborini nazarda tutib, mo'g'ullar hukmdori unga shaharni tashlab, o'zi ixtiyor qilgan tarafga ketishni taklif etadi. O'z jonini saqlab qolish yo'lida Vatanini yovga topshirishni or deb bilgan alloma bosqinchilarga qarshi «Yo Vatan, yo sharaflı o'lim»¹² degan g'oyani shior qilib jangga kiradi va mardlarcha tug' ko'tarib, lashkarni olg'a chorlab borayotgan holatda halok bo'ladi. U tug'ni shunchalar jon-jahdi bilan ushlagan ediki, bayroqni qo'lidan chiqarmay jon taslim qildi.

Ona-Vatanga sadoqat so'zda emas, hayotda o'z isbotini topishi kerak. Demak, har bir O'zbekiston fuqarosi Vatan nafaqat sevishi balki ko'z qorachig'idek asrashi, turli xil salbiy ta'sirlardan doimo ogoh bo'lishi kerak.

¹² Hamidova R. va boshq. O'zbekiston tarixi. – T., 2003. – B.234.